

**O‘SMIRLIK YOSHIDAGI O‘QUVCHILARDA XULQ-ATVOR
O‘ZGARISHLARINING PSIXOLOGIK TAVSIFI**

Todjimatova Nilufar Mamitjonovna

Andijon viloyati Ulug‘nor tumani

maktabgacha va maktab ta'limi

bo‘limiga qarashli 25- umumiy

o‘rta ta'lim maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yosh davrlari va ular o‘rtasida yuzaga keluvchi inqiroz holatlari, hamda o‘smirlik davrida yuz berishi mumkin bo‘lgan xulq-atvordagi salbiy og‘ishlar haqida to‘xtalib o‘tilgan. Shuningdek, “Shaxsiyat uchburchagi” haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Yosh davrlari, obrazi, pedagogik mahorat, o‘smir, xulq-atvor, psixologiya.

Har qanday mamlakatning ertangi taraqqiyotini uning kuchli bilim va salohiyatga ega, zamonaviy bilimlarni puxta o‘zlashtirgan yoshlar belgilab beradi. Ularni global rivojlanishning barcha sohalari va tarmoqlariga hayotbaxsh kuch bag‘ishlovchi shiddatli lokomotiv desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi.

Bola shaxsi shakllanishida uch kishi muhim ahamiyat kasb etadi: ona, ota va o‘qituvchi...

Bu “Shaxsiyat uchburchagi” hisoblanadi. Bola shaxsiyatining katta qismi mazkur uchburchak ichidagi munosabatlarda shakllanadi yoki buziladi. Bola shaxsiyatiga atrofdagi kattalardan qo‘rs muomala ko‘rish emas, balki o‘sha kamsitgan odam bilan yaxshi munosabat qilishga majbur bo‘lishi zarar yetkazadi. Bu tomondan qaraganda bola qo‘ni qo‘shni bilan sodir bo‘lgan ko‘ngilsizliklardan shaxsiyati shikastlanadigan darajada zarar ko‘rmaydi (jarohatli vaziyatlardan tashqari). Chunki, bola atrofidagi ko‘ngilsizliklar qarshisida himoya mexanizmini qo‘llashi mumkin. Kerak bo‘lsa qovog‘ini uyadi, gapirmaydi, ulardan uzoq turadi. Ammo bolaga zarar bergan kishi “Shaxsiyat uchburchagi”ning bir parchasi bo‘lsa, bola bu kishilarga qarshilik qilolmaydi, qilsa ham befoyda bo‘ladi. Ulardan xafa

bo'lolmaydi, bo'lgan taqdirda ham ehtiyojlarini ular qondirgani bois bardoshi ko'pga yetmaydi va ayni shu joyda shaxsiyat buzilishi sodir bo'ladi; zarar ko'rganida emas, unga ozor bergan kishiga yaxshi muomalada bo'lishdan boshqa iloji qolmaganidan unda buzilish yuzaga keladi.

Bugun dunyo aholisining 30 foizdan ko'prog'ini yoshlar tashkil etmoqda. Ushbu foizlarning ko'p qismini o'smirlar tashkil qiladi. Kichik maktab yoshining oxiriga kelib an'anaviy ta'lim tizimida chuqur motivatsion inqiroz kuzatiladi (ba'zan uni motivatsion vakum ham deb ataladi). Bunda yangi ijtimoiy pozitsiyani egallash bilan bog'liq motivatsiya yo'qoladi (o'qish hayotiy majburiyatlardan biriga aylanadi), o'qishning mazmunli motivlari mavjud bo'lmaydi, shakllanmagan bo'ladi. Inqiroz belgilari quyidagilarda namoyon bo'ladi: maktabga umuman salbiy munosabat, unga borish majburiy emas, o'quv topshiriqlarini bajarishni istamaslik, o'qituvchilar bilan nizolashishlar. Bola o'quv faoliyatida qanchalik kam muvaffaqiyatga erishgan bo'lsa, unga shunchalik og'ir tuyuladi. Maktabda o'quvchining barqaror mavqei shakllangan bo'ladi, ayniqsa qulay bo'lmagan mavqe o'smirlik davriga o'tishda ham saqlanib qoladi. Boshlang'ich sinf davrida bilim, malaka va ko'nikmalarning yetishmasligi tufayli hal qilinmagan qiyinchiliklar o'smirlik davriga o'tishda yanada chuqurlashadi. Bola hal qilishi zarur bo'lmagan muammolar, topshiriqlarga duch keladi. (O'zini tekshirish va boshqalar bilan solishtirish, har xil o'qituvchilarning talablariga, ta'limning yangi sharoitlariga moslashish). Shunday qilib, rivojlanishning ijtimoiy vaziyatini qayta qurishda turli topshiriqlarni bajarishning asosiy sharti sifatida o'z xislatlari va ko'nikmalariga, "o'ziga yo'nalganlik" vujudga keladi. Bolalar xarakterida kattalikka intilish kuzatiladi. Tengdoshlari bilan muloqot shaxsiy rivojlanishning ko'p jihatlarini belgilay boshlaydi. Jamiyatimiz rivojlanishining zamonaviy bosqichlarida, ko'proq, ulg'ayib kelayotgan kelajak avlod tarbiyasiga qaratilayapti. Bunda "inson katta miqdordagi bilimlar egasi qilib tarbiyalanib qolmay, balki o'z vatanining sodiq farzandi, mehnati va xulq-atvori jihatidan yuqori madaniyatli shaxsni" tarbiyalash kiradi. Shu sababdan ham o'smirlik davridagi inqiroz va xulq og'ishlari muamosini o'rganish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

O‘smirlik yoshining psixologik xususiyatlari alohida namoyon bo‘lgan sharoitlarda ular “o‘smirlik kompleksi” va uning kechishi bilan bog‘liq tarzdagi xulq-atvor buzilishi “pubertat krizis” degan nom oldi. Adabiyotlar tahlilining ko‘rsatishicha, mazkur holat ikkiga: krizis (inqiroz) va stabil (muqim)ga ajratiladi. Krizis holati o‘tkinchi xususiyatga ega bo‘lib, bunday “yorqinliklarni” to‘rtta; 1 yosh, 3 yosh, 7 yosh va 13 yoshda ko‘rish mumkin. O‘smirlik yoshidagi krizisning keskin o‘tish davri 12-16 yosh deb belgilanib, uning ikki fazasi: negativ (13-14 yosh) va pozitiv (15-16 yosh) deb ataladi. Umuman, o‘smir shaxsida juda qisqa vaqt oralig‘ida shiddatli tarzdagi o‘zgarishlar seziladi. Krizis eski va yangi psixologik o‘zgarishlarning to‘qnashuvi oqibati bo‘lib, yaxlit holda qaraganda, pozitiv qayta qurilishlar xarakterini kasb etadi. (L.S. Vigotskiy)¹.

Shuningdek, o‘smirlik davrining pubertat krizislarini konstruktiv baholanishini D.E. Elkonin (1972), V.V. Davidov (1974), A.N. Leontev (1975), D.I. Feldshteyn (1982) larning ishlarida ham uchratish mumkin. O‘smir krizis doirasiga kirishi bilan uning shaxs strukturasi rivojlanishida o‘ziga xos keskin psixologik siljishning ayrim xususiyatlari:

- a) krizis boshlanishi va tugashining noaniqligi;
- b) tarbiyasi qiyinlik ko‘rinishlari;
- v) rivojlanishning negativ xususiyat kasb etishi kabilarda namoyon bo‘ladi.

Ayrim xorij psixologlari o‘smirlik davri krizisining ildizlarini, jumladan, Z.Freydning fikricha, o‘zini o‘zi sevish², E.Erikson ayniylik krizisi, E. Doych ijtimoiy omil krizisi, avlodlar orasidagi nizolar va hokazolarda deb tushuntiradilar.

O‘smirlar o‘zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar. Ular o‘zlarining layoqat, qobiliyat va imkoniyatlarini ma’lum darajada o‘rtoqlari va o‘qituvchilariga ko‘rsatishga intiladilar. Bu holatni oddiy kuzatish yo‘li bilan ham osongina ko‘rish mumkin. O‘smirlik davri «o‘tish davri», »krizis davr», «qiyin davr» kabi nomlarni olgan psixologik ko‘rinishlari bilan xarakterlanadi. Bu davr uchun kattalarning xatti-harakatlariga taqlid qilish va o‘zining mana shu

¹ Выготский Л.С. Собрание сочинений. Т. 4, ч. 2. Проблема возраста.

² Фрейд А. Психология «Я» и защитные механизмы. М., 1993

yarashmagan qiliqlariga tanqidiy baho bera olmaslik, uning katta yoshli kishilarga yaqin bo'lishi, yordam berayotgan bir guruh tengdoshlari bilan ortiq darajada bog'liq bo'lib qolishi va shu singari holatlar xarakterlidir. Ikkinchi bosqichda o'smir endi o'zining yosh bola emasligiga shubha qilmaydi va o'zligini aniq anglay boshlaydi, o'z shaxsini ulug'lab, o'ziga xos harakatlar qila boshlaydi. O'smirlarni o'z shaxslari haqidagi fikrlar ko'prok qiziqtiradi, ular o'zlarini bilishga, maqsadli rivojlantirishga, tarbiyalashga harakat qiladilar. O'smirlarni o'z shaxslari haqidagi fikrlar ko'prok qiziqtiradi, ular o'zlarini bilishga, maqsadli rivojlantirishga, tarbiyalashga harakat qiladilar. O'smirda o'z qadrini bilish hissi paydo bo'ladi va u o'zini kamsitish, mustaqillik huquqidan mahrum qilish mumkin bo'lmagan inson, deb biladi. O'smirlik davriga kimningdir xatti-harakatini imitatsiya - qilish xosdir. Ko'pincha ular o'zlariga tanish va yoqadigan kattalarning xatti-harakatlariga imitatsiya, taqlid qiladilar.

Inqiroz - bu odamning uzoq vaqt davomida o'zidan va tashqi dunyo bilan bo'lgan munosabatlaridan noroziligidan kelib chiqadigan ruhiy buzuqlik holati. Inqiroz – bu insonning asosiy hayotiy qadriyatlari va ehtiyojlariga ta'sir qiladi, insonning ichki hayotining asosiy xususiyatiga aylanadi va kuchli hissiy tajribalar bilan birga keladi. Odatiy hayot tarzini buzadigan, tartibsiz yoki hatto imkonsiz qiladigan inqiroz odamdan o'z hayotini eng muhim tarkibiy qismlarini qayta ko'rib chiqishni, o'z hayotiy maqsadlarini, boshqalar bilan bo'lgan munosabatlarini, turmush tarzini va boshqalarni qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Inqiroz – bu inson uchun hayotiy vazifadir va uni hal qilish natijasi ko'pincha hayotning yangi fazilatlarining paydo bo'lishiga aylanadi. O'smirning tanasini qayta qurish barcha yo'nalishlarda sodir bo'ladi: u intensiv o'sadi, tana vazni va mushaklarning kuchi oshadi, yurak-qon tomir tizimi rivojlanadi.

O'smirlik - balog'atga yetishning boshlanishi. O'smirlar organizmidagi morfofunktsional o'zgarishlar qarama-qarshi jins vakillariga qiziqish uyg'onadi. Tez o'sish va fiziologik qayta qurish jarayonida o'smir tashvish, asabiylashish va depressiyani boshdan kechirishi mumkin. Ularning ko'pchiligi ba'zan tananing turli qismlarining o'sish sur'atlari o'rtasidagi nomuvofiqlik va uning nisbatlarining

keskin o'zgarishi tufayli o'zlarini noqulay his qila boshlaydi. Balog'at yoshining birinchi belgilarining paydo bo'lishi ko'pincha o'smirlik tajribasiga olib keladi, chunki uning jismoniy va fiziologik rivojlanish darajasi tengdoshlarinikidan farq qiladi. Bo'yi, vazni va tashqi ko'rinishi o'smirlar uchun asosiy tashvish manbai hisoblanadi. O'smirlar idealdan har qanday og'ish haqida tashvishlanishlari mumkin, juda erta yoki kech pishishi. Ota-onalar o'smirlik davrida qancha o'sayotganini oldindan bilishganida, bu qiyin bosqichga tayyorgarlik ko'rish osonroq bo'lar edi. Lekin ko'pincha o'smirlar o'zlariga nima bo'lganini va nima uchun ular o'zlarini namoyon qilishlarini tushunishmaydi. Qizlar uchun bu 11 dan 16 yoshgacha bo'lgan inqiroz hisoblanadi. O'g'il bolalar ham o'smirlar inqirozidan keyin 12-18 yoshda. O'smir yoshidagi yosh inqirozi o'zini o'zi himoya qilish, to'la huquqli shaxs maqomi uchun kurash kabi maqsadlarni ko'zlaydi hamda zamonaviy jamiyatda erkaklar mustaqillikka bo'lgan talablar yuqoriligi sababli, bolalarda o'smirlik inqirozining muammolari yanada kuchayadi. Xulosa qilib aytganda, bu davrdagi qiyinchiliklardan o'smirlarni osonroq o'tishi uchun ota-ona va sinf rahbar hamda o'qituvchilar ham bu kabi holatlarda o'smirlarni tushunishi, ularga yengilroq o'tishi, stressga berilmasligi uchun ko'maklashishi, suidsidal holatlarga olib kelmasligi uchun ham doimiy e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi, shu bilan bir qatorda o'smirlik davrida ularni to'g'ri yo'lga yo'naltirish, biror sohaga, hunarga qiziqtirish, bemani filmlarga taqlid qilishidan oldin xulosa chiqarishiga ko'maklashish, ularga faqat yaxshi bo'lishi uchun harakat qilinayotganini tushunishiga yordam va tavsiyalar berishimiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-smirlik-davri/viewer>
2. <https://universalpublishings.com/index.php/jsiru/article/download/1710/3270/1659>
3. <https://genderi.org/mavzu-osmirlik-davri-inqirozi-va-uning-psixologikpsixofiziolo.html>
4. Выготский Л.С. Собрание сочинений. Т. 4, ч. 2. Проблема возраста.
5. Фрейд А. Психология «Я» и защитные механизмы. М., 1993